

BUYUK SARKARDA VA IMPERIYA ASOSCHISI

Alinazarov Nodirxon Nosirxonzoda

Farg`ona davlat universiteti

Harbiy ta`lim fakulteti 1- bosiqch kursanti

Annotatsiya: Amir Temurning onasi Takina xonim edi. Otasi Amir Tarag`ay esa turkiy barlos urug`ining oqsoqollaridan hamda Chig`atoy ulusining e`tiborli beklaridan hisoblangan. Uning ajdodlari Kesh viloyatida hokimlik qilishgan. Shu bois Amir Temurning otasi amir Tarag`ay ham yilda bir marotaba Ili daryosi bo`yida xon tomonidan chaqiriladigan el-yurt beklarining qurultoyiga taklif etilar va u bunday yig`inlarda muttasil qatnashar edi. Shu bilan birga u, Sharafuddin Yazdiyning ta`kidlashiga ko`ra, „ulamo va sulaho va muttaqiylarg`a mushfiq va mehribon erdi va bularning majlisiga borur erdi...“. Tarag`ayjon piri Shamsuddin Kulolni ayniqsa chuqur ehtirom qilgan. Keyinchalik shayx Kulol Amir Temurning ham piri bo`lgan. Tarag`aybek 1405-yilda vafot etgan.

Amir Temurning katta opasi Qutlug` Turkon og`o va singlisi Shirinbeka og`o bor edi. Ular Temurdan oldin vafot etishgan va Samarqanddagi Shohi Zinda majmuasidagi maqbaralarda dafn etilgan. "Muyizz al-Ansab`ga ko`ra, Temurning yana uchta ukasi bor edi: Djuki, Olim Shayx va Suyurg`atmish. Temurning bitta amakisi bor edi, uning ismi Bolta edi.^[1]

Kalit so`zlar: Vatan, Amir Temur, yoshlik, faoliyati, hayoti, aql-zakovat, kuch, urush, xalq, harakat, boshchilik, harbiy, soliq, bostirib, mug`ullar.

Amir Temurning yoshligi Keshda kechdi. Yetti yoshga to`lgach, otasi uni o`qishga berdi. Amir Temur yoshlik chog`laridanoq maxsus murabbiylar nazorati ostida chavandozlik, ovchilik, kamondan nishonga o`q uzish, boshqa turli mashq va harbiy o`yinlar bilan mashg`ul bo`lgan. Shu asnoda Amir Temur tulporlarni saralab ajrata oladigan mohir chavandoz va dovyurak bahodir bo`lib voyaga yetgan. Amir Temur tabiatan og`ir, bosiq, teran fikrli va idrokli hamda nihoyatda ziyrak, kishilardagi qobiliyat, fazilat, ayniqsa, samimiyatni tezda fahmlab oladigan inson bo`lgan. Shu tufayli o`spirinlik chog`laridayoq atrofiga tengqurlari orasidan sadoqatli do`stlarni jalb qila olgan. Uning atrofiga bolalikdagi do`stlari va maktabdoshlari (Abbos bahodur, Jahonshohbek, Qimori inoq, Sulaymonshohbek, Idiku Temur, Sayfuddinbek, Hindushoh, Qarqara va boshqalar) to`planishib, birgalikda mashq qilar, musobaqalarda ishtirok etishar, astasekin navkar bo`lishib va harbiy guruhga birlashib, harbiy bo`linma sifatida shakllana borgan.

Keyinchalik ular Amir Temur qo'shinida lashkarboshilik darajasigacha ko'tarilganlar. Amir Temur ilk harbiy faoliyatini qo'l ostidagi navkarlari bilan ayrim viloyat amirlariga xizmat qilishdan boshlagan; ularning o'zaro kurashlarida qatnashib, jasorat ko'rsatgan, janglarda chiniqqan, harbiy mahoratini oshirgan. Dong'i butun Qashqadaryo vohasiga yoyilgan. Amir Temurning aqlu zakovati, shijoati va shuhrati uni Movarounnahrning nufuzli amirlaridan amir Xizr Yasovuriy va amir Qazag'on bilan yaqinlashtirdi. Xondamirning yozishicha, otasi amir Tarag'oy Amir Temurni avval (1355) amir Joku barlosning qizi Nurmushk og'oga, so'ngra o'sha yili (1355) Qazag'onning nabirasi va amir Husaynning singlisi O'ljoy Turkon og'oga uylantiradi. Keyingi nikoh tufayli Amir Temur bilan Balx hokimi amir Husayn o'rtasida ittifoq yuzaga kelib, ular birgalikda mo'g'ullarga qarshi kurashadilar. Amir Temurning Movarounnahrni birlashtirish yo'lidagi harakati 14-asrning 60-yillari boshlaridan boshlandi. 14-asrning 50-yillari oxirida Movarounnahrda amirlarning o'zaro kurashi kuchayib, amir Qazag'on o'ldirildi. Mamlakatda siyosiy parokandalik avjiga chiqib, og'ir tanglik sodir bo'ldi. Xondamirning „Habib ussiyar“ kitobida keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda, ulus o'nga yaqin mustaqil beklilarga bo'linib ketgan. Samarqand viloyatida amir Bayon sulduz, Keshda amir Hoji barlos, Xo'jandda amir Boyazid jaloir, Balxda Uljoy Bug'a sulduz, Shibirg'onda Muhammad I Xoja Aperdi nayman, Ko'histonda Badaxshon shohi amir Sotilmish, Xuttalonda Kayxusrav, Hitori Shodmon hududida amir Husayn va amir Xizr Yasovuriylar o'zlarini hokimi mutlaq deb e'lon qiladilar.

Bu davrda Chig'atoy ulusining sharqiy qismi — Yettisuv va Sharqiy Turkistonda hukmronlik qilayotgan mo'g'ul xonlari Movarounnahrda og'ir siyosiy vaziyatdan foydalanib, bu yerda o'z hokimiyatini o'rnatishga harakat qiladilar. Jeta xonlaridan Tug'luq Temur va uning vorisi Ilyosxoja 1360 — 61 va 1365-yil larda Movarounnahrda bir necha bor bostirib kiradilar. Mo'g'ul xonlarining boskinchilik yurishlari va zulmiga karshi xalq harakati boshlanadi. Biroq, Movarounnahr amirlari xalqqa bosh bo'lib, mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurashga jur'at eta olmaydilar. Ularning bir qismi dushman tarafiga o'tadi, ikkinchi qismi esa el-yurti tark etib, o'zga mamlakatlardan boshpana izlaydilar. Amir Temurning amakisi, Kesh viloyatining hukmdori amir Hoji barlos Xurosonga qochadi. Mana shunday og'ir pallada siyosat maydoniga Amir Temur kiradi. Mo'g'ullarga qarshi turish uchun kuchlar nisbati teng emasligini hisobga olgan 24 yoshli Amir Temur 1360-yilning boshida Tug'luq Temur tomonidan Keshga yuborilgan beklar bilan kelishadi. Sharoit taqozosi bilan xon xizmatiga o'tib, uning yorlig'i bilan o'z viloyatining dorug'asn etib tayin qilinadi. Shubhasiz, bu noiloqliqdan qo'yilgan siyosiy hamda strategik qadam

bo'lib, bu bilan Amir Temur mo'g'ullarning navbatdagi talontorajining oddini olgan, mamlakat va xalqni falokatdan qutqargan edi. Biroq, Movarounnaxrning hukmdori etib tayin qilingan Ilyosxoja va uning lashkarboshisi amir Bekkichik bilan Amir Temurning murosasi kelishmay qoladi. Shu sababdan 1361-yilning oxirida u mamlakatni tark etishga majbur bo'ladi.

Xivaning janubida, Urganjiy dashtida Amir Temur Tug'luq Temurning yana bir raqibi — qaynog'asi amir Husayn bilan uchrashadi. Amir Temur mo'g'ullar bilan kurashish maqsadida u bilan birlashib, ikkovlon kuch to'plashga kirishadi. Dastlab ular Tug'luq Temurxonning farmoniga binoan Amir Temurni ta'qib qilishga kirishgan Xiva dorug'asi To'qol (Tavakkal) bilan jang qiladilar. So'ngra 1362-yilning kuzida Seistonda viloyat hukmdori Malik Qutbiddinning tarafida turib mekroniylar bilan bo'lgan to'qnashuvda Amir Temur o'ng kifti va o'ng oyog'idan jarohatlandi.

Amir Temur va amir Husayn keyingi ikki yil davomida Ilyosxoja boshliq Jeta lashkari bilan bir necha marta jang qiladilar. Nihoyat, 1364-yil oxirida ular mo'g'ul qo'shinlarini Movarounnahr hududidan quvib chiqarishga muvaffaq bo'ladilar.

Biroq, Movarounnahrni qo'ldan chiqarishni istamagan Ilyosxoja 1365-yil ning bahorida yana Turkiston ustiga qo'shin tortadi. Toshkent bilan Chinoz oralig'ida ikki o'rtada sodir bo'lgan jang tarixda „Loy jangi“ nomi bilan shuhrat topadi. Jangda amir Husaynning xiyonati oqibatida mag'lubiyatga uchraydilar va o'z qo'shinlari bilan Amudaryo bo'ylariga chekinib, Balx viloyatida o'rnashdilar. Ilyosxoja esa hech qanday qarshilikka uchramay Xo'jand, Jizzax va boshqa bir qancha shahar hamda qishloklarni egallab, Samarqand ustiga yuradi. Samarqand o'sha paytlarda katta qo'shinga qarshilik ko'rsata olmasdi. Shaharning na devori va na mustahkam istehkomlari, na qurollangan sipohiysi bor edi. Bek va amirlar shaharni tark etgan edi, lekin mo'g'ullarga qarshi xalq ko'tariladi, sarbadorlar shahar mudofaasini o'z qo'llariga oladilar. Shahar mudofaachilariga Madrasa tolibi ilmlaridan Mavlnozoda Samarqandiy, jun (paxta) tituvchilar mahallasining oqsoqoli Abu Bakr Kuluyi (Kalaviy) Naddof va mergan mavlono Xurdaki Buxoriylar boshchilik qiladilar. Sarbadorlar Samarqand shahrida mo'g'ullarga qaqqshatqich zarba beradilar. Ilyosxoja dastlab Samarqandni, so'ngra butun Movarounnahrni tashlab chiqib ketishga majbur bo'ladi. Sarbadorlarning mo'g'ullar ustidan qozongan g'alabasi haqidagi xabar amir Husayn bilan Amir Temurga ham borib yetgan. Amir Temur qishni Qarshida, Husayn esa Amudaryo bo'yida o'tkazib, 1366-yil bahorida Samarqandga yo'l oldilar. Ular Konigita to'xtab sarbadorlarning dushman ustidan qozongan g'alabalaridan mamnun bo'lganliklarini va ular bilan uchrashmoqchi ekanliklarini bildiradilar.

Biroq, sarbadorlarning boshliqlari amirlar huzuriga kelganlarida amir Husayn buyrug'i bilan Abu Bakr Kuluyi (Kalaviy) Naddof bilan mavlono Xurdak Buxoriylar dorga tortiladi. Mavlonozodani esa Amir Temur, o'z himoyasiga olib kutqarib qoladi. Shu tariqa sarbadorlar boshliqsiz qoldirilib, Movarounnahrda amir Husaynning hukmronligi o'rnatiladi, ammo ko'p vaqt o'tmay Husayn bilan Amir Temur o'rtasidagi munosabat keskinlashib, ochiqdan-ochiq nizoga aylanadi. Amir Temurning nufuzi ortib borayotganligidan xavfsiragan amir Husayn Balxga qaytib, uning qal'a devorlari va istehkomlarini mustahkamlashga kirishadi. Balx, Qunduz va Badaxshondan ko'p sonli lashkar ham to'playdi. Kesh va Qarshi viloyatlariga bosh bo'lgan Amir Temur ham amir Husaynga qarshi hal qiluvchi jangga hozirlik ko'radi. 1366 — 70 yillar o'rtasida bir necha bor to'qnashuvlar bo'lib o'tadi.

Sayyid Baraka Amir Temur faoliyatini qo'llab-quvvatlab, unga oliy hokimiyat ramzi katta nog'ora — tabl bilan yalov — bayroq tortiq qiladi. Shubhasiz bu voqea katta siyosiy ahamiyatga ega edi. Chunki u saltanatlik ramzi edi. Amir Temur buni yaxshi tushunardi. Shuning uchun ham Balxga yetmasdan O'rpuz mavzeida u amir va no'yonlari bilan kengash o'tkazadi. Ko'pchilikning xohish va ixtiyori bilan, o'sha davr qonun-qoidalariga ko'ra, chingiziylar avlodidan bo'lgan Suyurg'atmish o'g'lon Movarounnahr podsholigi taxtiga o'tqazildi. Amir Temur qo'shini to Balxga yetib borgunicha, unga yo'l-yo'lakay yangi-yangi kuchlar kelib qo'shildi. Shu asnoda amir Husaynni ko'pchilik amirlari tark etdilar. Jangda amir Husayn qo'shinlari yengildi, ikki kunlik qamaldan so'ng, 1370-yilning 10 apr.da Balx sh. Amir Temurga taslim bo'ldi. Amir Husayn asir olinib, qatl etildi. Bu g'alabadan so'ng Amir Temur Movarounnahrning chingiziylerden bo'lgan hukmdori Qozonxonning qizi Saroymulk xonimni o'z nikohiga oladi. Xon qiziga uylanganligi munosabati bilan Amir Temur „ko'ragon“, ya'ni „xonning kuyovi“ unvonini oldi.

1370-yilning 11-aprelida Chig'atoy ulusining barcha beklari, amirlari, viloyat va tumanlarning dorug'alari hamda Termizning sayyidlari (xudovandzodalari), shuningdek Amir Temurning yoshlikdan birga bo'lgan quroldosh do'stlari va piri Sayyid Barakaning ishtirokida o'tkazilgan qurultoyda an'anaga ko'ra chingiziylerden Suyurg'atmishxon mamlakat hukmdori deb e'lon qilingan bo'lsada, amalda markaziy hokimiyatni Amir Temur o'zi boshqardi, viloyatlardagi hokimiyatni o'g'illari, nabiralari va yaqin amirlari orqali idora qildi. Samarqand Amir Temur davlatining poytaxtiga aylantirilib, o'sha yilning yozida shahar devori va qal'asi tiklandi, saroy va qasrlar bino qilindi.

Mamlakatning siyosiy va iqtisodiy mavqeyini mustahkamlab, ko'pdan davom etib kelayotgan ichki tarqoqlikka barham berish, tinchlik va osoyishtalikni qaror toptirish maqsadida Amir Temur (1370-yil iyunida) Samarqandda katta qurultoy chaqirdi. Unda markaziy davlat tizimini shakllantirish va qo'shin tuzish masalalari muhokama etildi.

El-yurtni boshqarishda harbiy kuchning ahamiyatini yaxshi tushungan Amir Temur qo'shinning tuzilishiga katta ahamiyat berdi. U „amir“ va „amir ul-umaro“ kabi yuqori darajali harbiy unvonlar joriy qildi. Qo'shinni harbiy jihatdan isloh qilar ekan, u ayniqsa lashkarboshilarni tanlash va ularni tarbiyalash, harbiy qismlar va ularning joylashish tartibi, navkar va sarbozlarning qurollanishi hamda intizom masalalariga nihoyatda e'tibor beradi (yana q. Temuriylar harbiy san'ati).

Amir Temur hokimiyat tepasiga kelgach, dastlabki vaqtlardayoq mamlakatda ro'y bergan og'ir iqtisodiy tanglikni bartaraf qilish uchun eng avvalo soliq tizimini tartibga soldi. Davlat soliqlarini yig'ishda aminlar, kalontarlar va soliq yig'uvchilarni ra'iyatga nisbatan insof va adolatli bo'lishga, qonunga xilof ish tutmaslikka chaqirdi, chunki saltanatning barqarorligi ko'p jihatdan ra'iyatning hol-ahvoli, uning davlat va davlat boshlig'iga bo'lgan sadoqatiga bog'liq. Ra'iyatni himoya qilish qonun bilan mustahkamlangan, qonun barchaga barobar bo'lgan. Amir Temur nafaqat o'z xalqini, balki zabt etilgan mamlakatlarning aholisini ham imkoni boricha qonun himoyasiga olgan. Ularni asirlik va talon-torojlardan saqlagan.

FOYDALANILGA ADABIYOTLAR:

1. Yuqorida keltirilgan o'g'itlar «Amir Temur o'g'itlari» to'plamidan keltirildi. «Navro'z», Toshkent, 1992.

2. "TEMUR TUZUKLARI"

3. Internet menbalari